


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>U.I.Obidjanov</b>	
Laboratoriya mashg'ulotlarining biologiya fanini o'zlashtirishga ta'siri.....	96
<b>M.A.Abduxalilova</b>	
O'quvchilarida ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish tamoyillarini shakllantirish .....	100
<b>M.A.Mamasaidova, M.X.Akbaraliyeva</b>	
Boshlang'ich ta'lrim o'quvchilariga ko'paytirish amalini o'rgatishning interfaol usullari .....	107
<b>G.S.Qosimova</b>	
Tibbiy ta'limga matematik modellashtirish orqali organizmning funksional holatlari va himoya-moslashuv jarayonlarini o'qitish usullari.....	112
<b>S.R.Toshboyeva, L.A.Yusupova</b>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida kombinatorika elementlarini o'qitishda qo'llaniladigan asosiy qoidalar .....	117
<b>A.A.Мирзалиев</b>	
Пути повышения эффективности системы морально-психологической подготовки и теоретическая модель ее организации.....	121
<b>A.T.Akbarov</b>	
Basketbolning jismoniy rivojlanish va salomatlikni mustahkamlashdagi muhim roli .....	127
<b>S.M.Sidiqov</b>	
Yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda harakatli o'yinlardan foydalanish .....	132
<b>Z.N.Usmonov</b>	
Jismoniy madaniyat ta'limi va tarbiysi jarayonini rejalashtirishga qo'yiladigan talablar.....	137
<b>S.T.Xakimov, N.B.Komilova</b>	
Umumiylar ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish (basketbol sport turi misolida) .....	142
<b>X.T.Xasanov</b>	
Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi xususiyatlari .....	147
<b>G.K.Yakubova</b>	
Turli yoshdagagi odamlarning har hil sharoit va hududlarda nafas olishini tahlil qilish.....	153
<b>T.T.Yusupov</b>	
Maktabgacha yoshdagagi bolalar uchun gimnastika mashqlari majmuuni tuzish va uni o'tkazishga qo'yiladigan talablar .....	158
<b>Y.J.Mirzaaxmedova</b>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixi bo'yicha bilimlarni shakllantirishning pedagogik jihatlari .....	164
<b>A.M.Maxmutaliyev</b>	
Umumta'lim maktabining boshlang'ich jismoniy madaniyat jamoasi faoliyatida innovasiyalar.....	168
<b>D.E.Yuldasheva</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuv texnologiyasi .....	173
<b>Y.J.Mirzaaxmedova</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik imoniylatlari .....	178
<b>D.E.Yuldasheva</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuv modeli .....	182
<b>L.E.Bobomurodova</b>	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining ma'naviy va kasbiy sifatlariga qo'yilgan talablar .....	189
<b>G.O'.Yuldasheva</b>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik refleksiyalash qobiliyatini rivojlantirish: komponentlar va ularning ahamiyati.....	194
<b>E.K.Muxtarov</b>	
Kvant mexanikasi fanidan amaliy darslarda masalalarni yechishning metodik jihatlari .....	194



УО'К: 373.3:796.011.3

**UMUMTA'LIM MAKTABINING BOSHLANG'ICH JISMONIY MADANIYAT JAMOASI  
FAOLIYATIDA INNOVASIYALAR**

**ИННОВАЦИИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОЛЛЕКТИВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В  
НАЧАЛЬНОЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЫ**

**INNOVATIONS IN THE ACTIVITIES OF THE PRIMARY PHYSICAL CULTURE TEAM OF  
GENERAL EDUCATION SCHOOL**

**Maxmutaliyev Adxamjon Meliboyevich** 

Farg'ona davlat universiteti jismoniy tarbiya va sport o'yinlarini o'qitish metodikasi kafedrasiga  
katta o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Umumta'lism maktabining boshlang'ich jismoniy madaniyat jamoasi faoliyatida innovasiyalar – bu zamon talablariga javob beradigan, o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini, sog'lom turmush tarzini va jamoaviy ruhni oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlar va metodlar to'plamidir. Ushbu annotatsiyada, boshlang'ich maktab jismoniy madaniyat jamoasining faoliyatida amalga oshirilayotgan innovatsiyalarni tahlil qilamiz.*

**Аннотация**

*Инновации в деятельности начальной физкультурного коллектива общеобразовательной школы — это набор новых подходов и методов, отвечающих требованиям времени, направленных на физическое развитие учащихся, формирование здорового образа жизни и повышение командного духа. В данной аннотации мы проанализируем инновации, реализуемые в деятельности физкультурной команды начальной школы.*

**Abstract**

*Innovations in the activities of the primary physical culture team of a general education school are a set of new approaches and methods aimed at meeting the demands of the times, enhancing students' physical development, promoting a healthy lifestyle, and fostering team spirit. In this annotation, we will analyze the innovations being implemented in the activities of the primary school physical culture team.*

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich jismoniy madaniyat jamoasi, innovasiyalar, ommaviy jismoniy madaniyat, jismoniy rivojlanish, sog'lom turmush tarzi, jamoaviy guruh, tibbiy nazorat, sport murabbiylari, ommaviy sport, sinfdan tashqari ishlar, sog'liq holati, tashkilotga a'zolik, sind jismoniy madaniyat tashkilotchilari, faoliyatni boshqarish.

**Ключевые слова:** Начальная физическая культура, инновации, массовая физическая культура, физическое развитие, здоровый образ жизни, командная группа, медицинский контроль, спортивные тренеры, массовый спорт, внеурочная деятельность, состояние здоровья, членство в организации, организаторы физической культуры класса, управление деятельностью.

**Key words:** Primary physical culture team, innovations, mass physical culture, physical development, healthy lifestyle, team group, medical supervision, sports coaches, mass sports, extracurricular activities, health status, membership in the organization, class physical culture organizers, activity management.

**KIRISH**

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish, rivojlantirish hamda sport zahirasi va yuqori mahoratlari sportchilar tayyorlash, sport majmularini moddiy texnik bazasini mustahkamlash, ilmiy-metodik va malakali mutaxasislarni tayyorlash borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Sport sohasida amalga oshirilayotgan izchil islohatlar, erishilgan beqiyos natijalar va shukuhli g'alabalarda Xalq ta'lif vazirligi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyatini ham munosib ulushi bor. Biz tadqiq qilishni maqsad qilgan maktablarda tashkil qilinadigan jamiyatning boshlang'ich tashkilotlariga a'zo bo'lish orqali sport to'garaklari, sport seksiyalidagi mashg'ulotlarda ilk ko'nikmalarni egallashadi hamda kelajakda halq aro maydonlarda Vatanimiz sharafini munosib himoya qilib, jahon ahliga "O'zbekiston yoshlari

hechkimdan kam emasligi va hech qachon kam bo'lmasli- gini" isbotlay oladigan sportchilar yetishib chiqishiga ham zamin yaratadi.

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi o'quvchilarning jamoatchilik asosida tashkillangan "o'quvchilar jismoniy madaniyati", "jismoniy tarbiysi", "o'quvchilar sporti", "o'quvchilar sog'lomlashtirish sporti" va "ommaviy sog'lomlashtirish ishlarini yo'lga qo'yuvchi – "O'zbekiston "YOSHLIK" jismoniy tarbiya va sport jamiyatining Markaziy kengashi" tomonidan 2015 yildan boshlab davlat va nodavlat tashkiloti tomonidan boshqarilayotgan umumta'llim maktabining "boslang'ich jismoniy tarbiya jamoasi"ni faoliyatini hozirgi kundagi monitoringi va uni faoliyatini takomillashtirish dolzarb muammo hisoblanadi.

Qayd qilingan boslang'ich "maktab jismoniy madaniyat jamoasi" o'z faoliyatini tashkillash tashkilot nizomi, ustavi va jamiyatning kengashi ko'satmalari, farmoyishlari va qarorlari asosida faoliyatini yo'lga qo'yan.

Mamlakatimiz o'quvchilar maktab jismoniy madaniyat jamoasining boslang'ich tashkilotining faoliyatidagi boy tajriba va innovasiyalarni ijodiy o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotimiz o'zining tarixiga ega.

### **ADABIYOTLAR TAHЛИILI VA METODLAR**

Boslang'ich maktab jismoniy madaniyat jamoasi faoliyatiga mansub tadqiqotlar mamlakatimizda o'tkazilmaganligi yana bir bor mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi. Shuning uchun ham mavzuni o'rganish, innovasiyalarni umumlashtirish shu kunning zaruriyati.

Maxsus adabiyotlarning qiyosiy va tizimli taxlili, maktab jismoniy madaniyat ta'llim kursini, mamlakatimizning jismoniy madaniyat ta'llimi Davlat ta'llim standarti, uning mazmunitagi o'quvchi jismoniy tarbiyasining maqsadli mashg'ulotlarining shakkllari, ularini tashkillash tizimi, vositalaridan o'quvchilarning jamoatchilik asosida tashkillangan boslang'ich jismoniy madaniyat jamoasining faoliyatini yo'lga qo'yish o'quvchi jismoniy madaniyatini shakllantirishni ta'llimi jarayonida bu jamoadan foydalinish dolzarb bo'lib, maktab jismoniy madaniyatining asosiy mag'zini tashkil etadi. Ishning shu kun talablarida tashkillash o'quvchilarni 10 dan ortiq kasb sohibi bo'lismidagi birinchi odimlari bo'lib xizmat qiladi.

Boslang'ich jismoniy madaniyati jamoasi faoliyatida havaskor jurnalistlar, foto muxbirlar, kino rejsyorlar, taxirchilar, yozuvchilar, sport murabbiylari, jamoatchi sport yo'riqchilar, sport turlari bo'yicha jamoatchi sport hakamlari, mahalla sporti trenerlari, rassomlar, dizaynerlar, bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilar va boshqa qator kasblarning sohiblariga qayd qilingan kasblarni alifbosi o'rgatiladi. Chunki, oddiygina paralel sinflarning maktab birinchiligi uchun maktabning boslang'ich jismoniy tarbiya jamoasi o'tkazadigan musobaqa uchun qayd qilingan faollar faoliyat ko'rsatadilar.

Mamlakatimizning kelajagi, o'quvchi yoshlar jismoniy madaniyatini shakllantirish, ularda maktab yoshidan boshlab "ommaviy jismoniy madaniyati mashg'ulotlari" bilan shug'ullanishga odatni yuzaga keltirishdek vazifa o'quvchini umri davomida faol harakatlanish bilan turmush tarzini tashkillashga o'rgatadi. Tadqiqotimizni yuqorida qayd qilgan amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Muanmoni hal qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy majlis va mamlakatimiz halqlariga murojati (2022-yil dekabr), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora –tadbirlari to'g'risida Qarori", 2018-yil 5-martdagli PF-5368-sonli "Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 5-sentyabrdagi "Halq ta'llimi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini tatbiq qilish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4038-son Qarorlari, 2019-yil 4-sentyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha vazifalar"ga oid videoselektordagi nutqi, «O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi PF- 5924 – son (2020-yil 24.01) farmoni; "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" PF-6099-son, (2020-yil 30.10); "Sportni ommalashtirish va iqtidorli sportchilarni tanlash, seleksiya, ularni tayyorlash bo'yicha yangi tizim joriy qilish"ga bag'ishlangan video selektordagi nutqi. PQ- 5148-son "Jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'tasida, jumladan, o'quvchi yoshlar jismoniy rivojlanganligi va jismoniy tayyorgarligi hamda ular orasida sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyatini rivojlantirish uchun shart sharoitlarni yaratish; bor o'quvchilar sporti haqida fikr bildirib, umumta'llim maktablarida jismoniy tarbiyadan

sinfdan tashqari ishlarni tiklashni; joriy 2022-yilning 23-may kuni "Sportni omalashtirish va iqtidorli sportchilarni tanlash, seleksiya, ularni tayyorlash bo'yicha yangi tizim joriy qilish"ga bag'ishlangan video selektordagi nutqi; hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujatlardagi belgilangan vazifalarni bajarishda e'tiboringizga havola qilinayotgan tadqiqotimizga muayyan darajada xizmat qiladi.

Maxsus adabiyotlarning taxlili orqali (J.K.Xolodov, V.S Kuznesov, B.A.Ashmarin, G.P.Bogdanov, N.J.Bulgakov, G.B. Meykson, V.D.Kovalev va boshqa lar)ning jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlarni tashkillashda maktab jismoniy madaniyat jamoalari va ularning faoliyatini, maktabning jismoniy madaniyati darajasini baholash bilan bog'liqligi va ular (maktab jismoniy madaniyati)ning qaysi jihatlariga e'tibor berish – ommaviylikmi yoki faqat fandan baho olish uchun darsga qatnayotganligiga qarabmi, yoki maktab o'quvchilarining sport yutuqlariga qarab baholash masalalriga haqidagi fikrlarni o'rta ga tashhamoqdalar.

#### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maktab o'quvchilarini har 6 oydan so'nggi tibbiy nazoratidan so'ng ularni qaysi tibbiy guruhga taqsimlanganligidan qat'iy nazar, qaysi meditsina gruppalariga kiritilganligiga qaramay, sog'lig'i holatini darajasini e'tiborga olib maktab jismoniy tarbiya jamoasiga IV-IX sinf o'quvchilaridan og'zaki ariza qabul qilinadi va jismoniy madaniyat jamoasining boshlang'ich jismoniy tarbiya tashkilotlari tuziladi deb berilgan ko'rsatma maktab jismoniy tarbiya jamoasi nizomida qayd qilinishi qoidaga aylantirilgan.

Sinflar maktab jismoniy tarbiya jamoasining boshlang'ich tashkiloti hisoblanadi. Tashkilotga a'zolikga qabul qilish tantanali ravishda, o'zining qasam yodini qabul qilish bilan amalga oshiriladi. Sinf o'quvchilarining faoliyatini boshqaruvi ochiq ovoz bilan saylangan sinf jismoniy madaniyat tashkilotchilari orqali amalga oshiriladi.

Jismoniy tarbiya jamoasiga 25-nafardan ortiq o'quvchi jismoniy tarbiya jamoasini tuzish xaqida maktab direktoriga og'zaki murojaat qilganlardan so'ng maktabning umumiy yig'ilishi yoki sinflarning jismoniy tarbiya faollari ishtirokidagi o'quvchilarning umumiy majlisi chaqirilib quyidagi kun tartibida majlis o'tkazish uchun tayyorgarlik ishlari yo'lga qo'yiladi:

Maktab jismoniy tarbiya jamoasi kengashini saylash. Har o'quv yilida jismoniy tarbiya jamoasi kengashining yillik hisobot saylov yig'ilishini o'tkazish qoidaga aylangan. Yangi saylangan jamoa tuman (shahar) o'quvchilarining ko'ngilli sport jamiyatni (KSJ) tomonidan ro'yxatga olinadi.

Hisobot saylov yig'ilishi jismoniy tarbiya jamoasi kengashining yillik faoliyati hisobotini tinglaydi, muhokama qiladi tegishli qarorlar qabul qilinadi. Maktabning faol tashkilotchilari va sportchilardan tashkil topgan 7-23 kishi tarkibida ochiq ovoz berish yo'li bilan bir yillik muddatga jamoaning kengashi saylanadi. Agar hisobot saylov yig'ilishida saylangan vakillarni 2/3 qismidan kami qatnashmasa yig'ilish qonuniy xuquqqa ega bo'maydi. Kengash o'z ishida jismoniy tarbiya o'qituvchilari va maktabning boshqa fan pedagoglarini, sinf rahbarlarini ishtirok etishiga sharoit yaratadi.

Jamoa a'zolari o'qishini maktabdagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, sinf sporti hamda "Aholi salomatligini baholash" testini topshirish, sport razryadi normativlarini bajarish bilan muntazam bog'lab olib borishi lozim. Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarida aktiv qatnashish asosiy shart sifatida belgilanadi. Jismoniy mashqlarni bajarish mashg'ulotlarida qatnashishi taoqiqlangan o'quvchilar jamoani tashkiliy va jamoat ishlarda (musobaqalarda hakamlik qiladilar, hujatlarni yuritadilar, jismoniy tarbiya burchaklarini jihozlaydilar, sport gazetalarini chiqarish va boshqalarda) ishtirok etadilar.

Qoidaga muvofiq maktablarning jismoniy tarbiya jamoalarida hisobot-saylov yig'ilishlari o'quv yilining boshida (sentyabr oyining birinchi yarmida) o'tkazish an'anaga aylangan. Maktab jismoniy tarbiya jamoasining ishi hisobot saylov yig'ilishidan keyin keng ko'lam olishi amaliyotda isbotlangan. Qator maktablarni jismoniy tarbiya jamoasining kengash a'zolari va jismoniy tarbiya faollarini (tuman) ko'lamida tumanning (shaharning) sport sog'lomlashtirish lagerlaridan birida yoki dam olish oromgoxlarida, sharoiti talab darajasidagi biror maktabning o'zida STIlarni tashkillash va o'tkazishga o'qitish yoki maktab jismoniy tarbiya jamoasi faoliyatini yo'lga qo'yish uchun seminarlar tashkil etishni ahamiyati katta.

Ommaviy tashkiliy ishlarga komissiya raisi va uni a'zolaridan tashqari jamoa kengashining raisi boshlovchilik qilishi odatga aylangan. Chunki jamoaning foliyatini yo'lga qo'yish asosan ommaviy-tashkiliy ishlar bilan bog'liq. Ommaviy tashkiliy ishlar turli tuman va o'ta qiziqarli.

Jamoada komissiyani boshqaruvchi o'quvchi yoshlari yordamida: jamoa uchun aktiv (faollar) tanlash; ularni joy joyiga qo'yish; ularni o'qitish uchun seminarlarni uyuştirish; maktabning boshqa jamoatchi tashkilotlari bilan aloqa o'rnatish; hamkorlik qilish; ota-onalar qo'mitasi; otaliq tashkilotlar, homiyalar va vasiylarni topish va ular bilan aloqani yo'lga qo'yish; maktabning jismoniy madaniyati va sportiga oid tadbirlarni rejalashtirish, tashkillash va o'tkazishda vazifalarni boshqa komissiyalarga o'rinci taqsimlash; jamoa faollariga o'rinbosarlarni topish va tayyorlash, boshqa komissiyalarda ularni stajirovkasini yo'lga qo'yish; radio, gazeta, devoriy gazeta, mahalliy matbuot, radio-televideniyada targ'ibot-tashviqot ishlari komissiyasi faoliyatini nazorat qilish, tashkiliy ishlarga amaliy yordam berish; "Aholi salomatligini baholash" testi bo'yicha, o'quv-sport ishlari, xo'jalik ishlari komissiyalarining faoliyatini kengash muhokamasiga tayyorlash masalalari bilan shug'ullanadi; sinf faollari, sinflardagi sport ishlarini tashkillash; sport tayyorgarligi, musobaqalar, sport seksiyalari va to'garaklari faoliyatini nazorat qilish va undagi tashkiliy masalalar; sport burchaklari, rekordlar doskasi, jamoaning faxriy kitobini yuritilishini nazorat qilish; o'quvchi sportchilar klassifikasiyasini oshirish musobaqalari, o'rtoqlik uchrashuvlari; suhbatlar, kechalar, uchrashuvlar tashkillash; sinf jismoniy tarbiya tashkilotchilarini tayyorlashni amalga oshirish; "Aholi salomatligini baholash" testi faollarini tayyorlashni nazorati; sinflar, parallel sinflarni jismoniy tarbiya jamoasini boshlang'ich tashkilotlarining hisobot saylov yig'ilishlarini uyuştirish; maktab jismoniy tarbiya jamoasining yillik hisobot saylov yig'ilishlarini tashkillash va o'tkazishdek tashkiliy hamda omma bilan ishslashdek qator faoliyatlarini amalga oshiradi.

Jamoatchi yo'riqchi, sport hakamlarini tayyorlashni rejalashtiradi; sport seksiyalari kengashi yoki byurolari faoliyatini nazora-tini olib boradi.

Bu komissiyaning a'zolari boshqa komissiyalarning umumiy sonidan 2-3 nafar ortiq bo'llishi mumkin. Bu komissiya tarkibidagilarga komissiya raisi, komissiya kotibi, maktabni otaliqqa olgan tashkilot, muassasa, homiy, vasiylar va ota-onalar qo'mitasi bilan aloqa bog'lovchilar, sinflarning jismoniy tarbiya tashkilotchilari (har bir sinfda ikki nafardan) "Aholi salomatligini baholash" testlari tadbirlari uchun mas'ullar, sog'lomlashtirish ishlari, ro'yxatga olish va hisobot ishlari kengash a'zolarini navbatchiligini tashkillash va uni ijrosini nazorat qiluvchi, sport kechalar, sport musobaqalari tashkillash uchun mas'ul sifatida vazifalar taqsimlanishi va ularga biriktirilishi mumkin.

Qaydnomada: jamoaning kengashi tarkibi, ularni qaysi komissiyaga biriktirilganligi, jamoa kengashining yig'ilishlari rejasiga va unda muhokama qilinadigan masalalarni kun tartibi, choraklarni har biri uchun jisman sog'lomlashtirish ishlari rejasiga, o'quv yili uchun sinflar xaqida ma'lumotlar, maktab sport seksiyalari, ularda shug'ullanayotganlar soni, UJT guruuhlarida shug'ullanuvchilarning miqdori, maktabda o'tkazilayotgan jismoniy tarbiya va sport tadbirlari, o'quv yilida maktab o'quvchilar ishtirok etgan sport musobaqalari, maktab o'quvchilarini eng yaxshi sport natijalarini qayd qilish tartibi, jamoatchi sport hakamlari soni, sinfdan tashqari tadbirlarda mukofotlangan (taqdirlangan) o'quvchilarning soni, sport turlari bo'yicha kuni uzaytirilgan sinflarning soni, «O'quvchi jismoniy tayyorgarligi darajasini baholash me'yoriy normalarini» topshirganligi hujjatlari nishondorlarini har bir maktab yoshi bo'yicha soni ro'yxatga olinib maktab sporti, maktab jismoniy madaniyati tarixining manbaiga aylanadi.

Komissiyalar ish rejalar, o'quv choraklari va o'quv yili uchun sinfdan tashqari ishlari hisoboti, nazoratchi tekshiruvchilarning fikr va mulohazalarini qayd qilish varaqlari uchun ham joy ajratilgan. Muntazam to'ldirilib borilgan bunday qaydnomalar tahlili maktab jismoniy tarbiya jamoasi faoliyatini, qolaversa, sinfdan tashqari ishlari sifatini baholash imkonini beradi va jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlari arxivini vujudga keltiradi.

Kengash tarkibiga uning a'zolari bajaradigan faoliyatidan kelib chiqib tanlanadi. Umumiy rahbarlik qilishga layoqati borlar va shu ishga ishtiyoqmandlar kengash raisi uning muovinlari qilib saylanadi, tashkillash, uyuştirish qo'lidan keladigan kengash a'zolari ommaviy-tashkiliy ishlari komissiyasiga; o'rgatish, o'qitish qo'lidan keladiganlar, sport turi bo'yicha nazariy tayyorgarligi balandroq o'quvchilar, o'zin qoidalarini biladiganlardan o'quv-sport ishlari komissiyasiga; hisobot va hujjatlashtirish ishlari komissiyasiga sinfdan tashqari ishlari mazmuni va uni tuzilishi haqida tushunchasi bor o'quvchilardan; targ'ibot-tashviqot ishlari komissiyasiga bo'lajak jurnalistlar, yozuvchi-shoirlar, foto muxbirlar, hujjatli filmlarning rejissyoru-operatorlari; xo'jalik ishlari

komissiyasiga esa duradgor, bo'yoychi, bo'lajak quruvchi va shu ishlarga layoqati bor o'quvchilarni saylash kengash faoliyatida muhim rol o'ynaydi.

Bunday o'quvchilarga oldindan kichik topshiriqlar beriladi, ularning ijrochilik qobiliyati darajasi o'rjaniladi, topshiriqqa nisbatan mas'uliyat sezishi sinaladi. Odatda tajribali jismoniy tarbiya o'qituvchilari bunday o'quvchilarni oldindan qator yillar davomida o'zлari tayyorlaydilar. Avval ish o'rgatadilar, so'ng ulardan foydalananadilar. Amalda 7-8 sinf o'quvchilari bunday topshiriqlarni qiziqib bajaradilar. Qo'yi sinflardan ularga stajer biriktirish, maktabni bitirganlar o'rnnini to'ldirish uchun qulaylik yaratadi, yangilarga ish o'rgatishga sarflanadigan vaqt tejaladi. Biz qaydnomada hisobot-hujjatlashtirish va ro'yxatga olishda foydalilanidigan ayrim varaqlarni ajratdik, ularni o'z vaqtida to'liq to'ldirish orqali maktab jismoniy tarbiya jamoasi va uni sinfdan tashqari ishlarni amalga oshirishdagi faoliyatini to'liq ifodalash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

### XULOSA

Xulosa qilib aytishimiz zarurki, qayd qilingan komissiyalarning faoliyati faqat biz rejalar mazmunida ifodalangan o'quvchi jismoniy tarbiyasining sinfdan tashqari ishlarni mazmunini o'zagi o'quv tarbiya muassasalardagi jismoniy tarbiya jamoalarining faoliyati deb aytish mumkin. Jamoa faoliyatini samaradorligi, uning tarbiyaviy ahamiyati, o'quvchilarni kundalik turmushda o'z-o'zini boshqarish, topshiriqni ijrosi oldida mas'uliyat, jamoadoshlari manfaati uchun o'z manfaatini ikkinchi darajaliga o'tkazishni uddalash, hayotiy ijtimoiy qoida va prinsiplarga rioxal qilishdek davlatimizni kelajak avlod tarbiyasi uchun qo'yan talablariga muvofiqdir.

Umumiylar ta'lif muktablarida o'quv kuni yakunlanganidan so'ng sinfdan tashqari vaqtida o'tkaziladigan jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlari, sport hamda sog'lomlashtirish tadbirda rining muktabdag'i tizimini "sinfdan tashqari ishlar" (STI) deb atash qabul qilingan va bu jarayonni samaradorligi muktab jismoniy madaniyatini rejorashtirish bilan bog'liq.

Tadqiqotlarimiz jamiyatimiz a'zolarining jismoniy madaniyatining poydevori umumiylar ta'lif muktabidagi tahsil yillari davomida muktab sporti, uning sport seksiyalaridagi, fakultativ mashg'ulotlar, ommaviy sog'lomlashtirish tadbirdi, QZUlari mustaqil maqsadli mashg'ulotlar davomida qo'yiladi va o'quvchilarni intellektual va jismoniy shakllanishida yetakchi vositaligiga davogarlik qilayotganligi mukammal asosga ega bo'lgan, amalga oshirilishi aniq rejalar asosida yo'lda qo'yiladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida. 2021 yil 16 iyundagi PQ-5148-sodn Qaroriga.
2. A.Abdullayev, Sh.Xonkeldiyev. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent., - "O'zDJTI hashriyot matbaa bulimi" – 2007.
3. T.S.Usmonxo'jayev va boshqalar "500 harakatl o'yinlar". Toshkent: Yangi asr avlod. 2014 yil. – 320 b.
4. R.M.Rasulov Jismoniy tarbiyadan sinfdan tao'qari ishlar. O'quv qo'llanmasi. Farg'ona 2022. 202 b.